

A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti Chet tillar fakul'teti
“Ijtimoiy –gumanitar fanlarda chet tillar ” kafedrasи o'qituvchisi Boymatov
Abduazizning ingliz tilidan bir juftlik ochiq dars tahlili.

QAYDNOMASI

Jizzax shahri

2022 yil 18- fevral

Boshlang'ich ta'lif fakulteti

814-20 - guruh talabalari soni 14 nafar

Qatnashdilar, katta o'qituvchi: Murodova G.

o'qituvchi: Berdiyev A.

o'qituvchi: Hamzayev A.

Tashkiliy qism

Talabalarining fonetik talaffuzi va og'zaki nutqi bo'yicha o'qituvchi ingliz tilida ular bilan qisqa suhbat o'tkazdi.

- What date is it today? What day is it today?
- What kind of the weather is it today?
- Is it cold or warm today? etc.

O'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi suhbat ingliz tilida olib borildi. Muloqot vaqtida barcha talabalar faol ishtirok etdilar. Ular har bir savolga to'g'ri va ravon javob berishga harakat qildilar. O'tkazilgan suhbat uyga berilgan topshiriqni so'rash bilan uyg'unlashib ketdi.

Uyga vazifani tekshirish

O'qituvchi uyga berilgan topshiriqni tekshirib chiqdi. Ularning o'tgan darsdagi mavzuni yaxshi o'zlashtirganligiga ishonch hosil qilish uchun qo'shimcha savollar berdi:

- When do we use The Present simple Tense?
- What are this tense's adverbs?
- Has any difference between The Present The Present simple Tense and the Present Past Tense?

Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan har bir savolga to'g'ri va aniq javob berishga harakat qildilar. O'qituvch talabalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni tushuntirgan holda ularni tuzatib bordi. Ba'zi talabalarning o'qish tezligi va og'zaki nutqi yaxshi ekanligi kuzatildi.

Asosiy qism

Yangi mavzu:

O'qituvchi darsni boshlashidan oldin yangi mavzu bo'yicha barcha o'quv jihozlarini tayyorlab qo'yan. **Money matters / Which, Who** doir misollari bilan berilgan ko'rgazmali qo'rol, darsliklar, tarqatmali materiallar va h.k.z. O'qituvchi uyga berilgan vazifani talabalar qanday bajarganlarini tekshirib bo'lganidan so'ng yangi mavzuni tushuntirishni boshladi. Yangi mavzuni doskaga yozib qo'ydi. Shundan so'ng yangi mavzuni ingliz tilida tushuntirdi, ba'zi qiyin so'z va iboralarni o'zbek tilida izohlab o'tdi. Jadval yordamida talabalar bittadan fe'lni har uchchala shaklda og'zaki tusladilar va shu fe'llar yordamida gaplar tuzishdi. Tuslangan fe'llar misollar yordamida tushuntirilib berildi.

Shundan so'ng o'qituvchi tarqatma materiallardan foydalandi. 8ta kartochka tayyorlab, ingliz tilidagi noto'g'ri fellarning har bir shaklini to'g'ri talaffuz qilgan holda aytib berish va ular yordamida gaplar tuzish so'raldi. Berilgan vaqtdan so'ng o'qituvchi talabalardan so'rab, ularning yo'l qo'ygan xatolarini tuzatdi.

Shundan so'ng o'qituvchi yangi noan'anaviy uslubdan foydalanib, yangi mavzuga oid leksik topshiriqni tushuntirdi. O'qituvchi doskaga kalit so'zi qilib "Primary Education in the USA" so'zini yozdi. Talabalar kalit so'ziga mos so'zlarni fe'llar yordamida yozdilar. Ish jarayoni avval kichik guruhlarda, keyin butun guruhlarda amalga oshirildi. Shundan so'ng talabalar mavzu bo'yicha 1, 2, 6-mashqlarni bajarishdi.

Ikkinchchi qism

Darsni mustahkamlash

O'qituvchi dars o'tish jarayonida pedagogik texnologiyani joriy qilgan holda o'tilgan grammatik va leksik mavzularni mustahkamlash uchun talabalarga og'zaki va yozma mashqlar bajartirdi, shuningdek talabalar o'qituvchining savollariga javob berdilar. Doskadan foydalangan holda talabalarga bir necha fe'llarni tuslab yozdirdi.


Jadvallar yordamida talabalar og'zaki gaplar tuzdilar. Dars jarayonida barcha talabalar faol ishtirok etdilar. Dars nihoyasida o'qituvchi talabalarni baholadi va yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni yana bir marta ta'kidlab o'tdi. Dars hozirgi zamon talablariga mos ravishda o'tildi. O'qituvchi yangi ped. texnologiyalardan foydalanib dars o'tish tajribasiga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki o'qituvchi barcha imkoniyatlardan kelib chiqqan holda yangi mavzuni o'tilgan darsga bog'lab o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishdi, deb o'ylaymiz. Barcha talabalarning faol ishtiroki ularning o'tilgan mavzularni qiziqish bilan o'rganayotganligidan dalolat beradi. Zamonaviy jihozlangan fan kabineti bo'lganida darsning samaradorligini yanada oshirish mumkin bo'lar edi. O'qituvchi o'z sohasini yaxshi egallagan.


Chet tillar kafedrasi a'zolari:

kaf.mudiri:



Abdullayev Z

Katta o'qituvchilar:



Umurzoqova G.

O'qituvchilar:



Hamzayev A.



Berdiyev Aliboy